

O'RMONNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI.

Oltinov Sobir Hayot o'g'li – “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedراسi stajyor-o'qituvchisi.
Teshayev Hasan MurtaZoyevich - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Jalolova Sabrina Sanjar qizi - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi
Ashurov Shaxob Anvar o'g'li - “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti
 “Milliy tadqiqot universiteti”
 Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'rmonning xalq xo'jaligidagi ahamiyati yoritilgan, o'rmon va himoyalaydigan o'rmon daraxtlari o'tqazuvining melioratsiya sohasidagi roli va yerdan samarali foydalanishni ta'minlovchi tadbirlar majmui tarkibida o'rmon meliorativ tadbirlar tarkibi kabi masalalar ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье освещено значение леса в народном хозяйстве, роль посадки леса и защитных лесных деревьев в сфере мелиорации, а также состав лесомелиоративных мероприятий в комплексе мероприятий, обеспечивающих эффективное землепользование.

Abstract. This article highlights the importance of the forest in the national economy, the role of the planting of forest and protective forest trees in the field of reclamation, and the composition of forest reclamation activities in the set of activities that ensure effective land use.

Kalit so'zlar: O'rmon xo'jaligi, melioratsiya, moddalar muvozanati, biosfera, Amudaryo, Movarounnahr, o'rmon meliorativ tadbirlar va yerdan samarali foydalanish.

Ключевые слова: Лесное хозяйство, мелиорация, баланс веществ, биосфера, Амударья, Моваруннахр, лесомелиоративная деятельность и эффективное использование земель.

Key words: Forestry, reclamation, balance of substances, biosphere, Amudarya, Movarounnahr, forest reclamation activities and effective use of land.

Kirish. Inson hayotida o'rmonning ahamiyati juda ham katta va ko'p qirrali. O'rmon daraxtlari biosferaning muhim komponentlaridan hisoblanadi. Ular biosferadagi moddalar muvozanatini saqlaydi, moddalar almashib turishini tartibga solishni ta'minlaydi, iqlimni yumshatadi, kislorodning manba'si sifatida xizmat qiladi, namlikni to'plash va saqlash, suvni va tuproqni muhofaza qilish, gidroiqlimli, va sog'lomlashtirish funksiyalarini bajaradi. Bir necha xil hayvonlar va parrandalar uchun yashash joyi bo'lib xizmat qiladi. Biosferada yuz beradigan barcha o'zgarishlar asosan o'rmon ishtiroki bilan bog'liq.

Odamlar uchun o'rmon qadimdan yashash va oziq-ovqat topish joyi bo'lib kelgan. Hozirda ham u yog'och yetishtirish va inson hayoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlar manba'si sifatida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. O'rmonlardan chorva mollarini boqish, ov qilish, pichan o'rish, daraxtlar va o'simliklar mevasini va dorivor o'simliklar xomashyosini to'plashda foydalanadilar.

O'rmon daraxtlari va o'simliklarining estetik ahamiyati ham bebaho, ularning ta'sirli va takrorlanmaydigan chiroyliligi shahar va qishloqlarni ko'kalamzor qilib bezatishda, go'zal manzara barpo etishda keng foydalaniladi. Ularning takrorlanmaydigan chiroyliligi kishida go'zallik hissiyotini uyg'otadi.

O'zbekiston Respublikasi yerida o'rmonzorlar barpo etish va himoyalaydigan o'rmon daraxtlari o'tqazuvini tashkil etish o'zining ko'p asrlik tarixiga ega.

Respublikaning ushbu hududida odamlar qadimdan yashab kelganlar. O'tgan XX – asrning o'rtalarida olimlar tomonidan tosh davrida yashagan odamlarning turgan joylaridan bir nechtasi topilgan. Ulardan keng ma'lum bo'lganlari: «Teshik tosh» (Boysun tog'ida); «Omon qo'tan» (Qora tepa tog' tizmasi) – Samarqand shahri yaqinida.

Eramizning boshlarida Amudaryo bilan Sirdaryo o'rtasi – Movarounnahrda* yashayotgan qabilalar uchun urug'chilik tizimi tugallanib o'rniga yiriklashgan quldorlik davlati vujudga kelgan.

Sug'orib dehqonchilik qilish bilan bir vaqtda bu yerda o'rmonchilik ham vujudga kelgan. Bu yerlardagi mavjud tabiiy o'rmonzorlar yong'oq, o'rik, pista, zarang (klen), olcha va tog' olmalaridan tashkil topgan bo'lib, ular faqat tog' yonbag'irlarida emas, balki undan pastroq yerlarni ham qoplagan edilar, hattoki sug'oriladigan yerlar chegarasigacha tushganlar. Mahalliy xalq ulardan meva olish bilan birga ko'proq yoqilg'i sifatida foydalanganlar, olinadigan yog'och-ning sifati juda past bo'lgan. Shu sababli mahalliy xalq sug'oriladigan o'rmon-chilik bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lgan. Quyosh nuri va issiqlikning haddan tashqari ortiqligi sug'oriladigan o'rmonlardan qisqa vaqt ichida yuqori sifatli qurilishga va buyumlarga ishlatish uchun ketadigan yog'ochlar olishga imkon bergan. Odamlar yaxlit o'rmonlar yaratish bilan birgalikda hamma vaqt dalalar qirg'og'iga suv shahobcha (kanal - ariqlar) yoqasiga o'rmon yoki mevali daraxtlar o'tqazib kelganlar.

Amir Temur (1335 – 1405) va temuriylar davrida hukmron sinf vakillari yirik - yirik bog'lar barpo etishgan. Ularning ichida gulzorlar, alleyalar tashkil qilib atroflarini manzarali o'rmon daraxtlari va buta o'simliklari bilan bezatish-gan. Bunday ishlar bilan o'sha vaqtlarda shug'ullanish ajoyib an'anaga aylangan edi.

Temurning o'zi Samarqand atrofida «Bog'i Shamol», «Bog'i Chinor», «Bog'i Bexisht» (Jann bog'), «Bog'i Zagon» (Zog'chalar bog), «Bog'i Dilkusho» (Ko'ngilni quvontiradigan bog'), «Bog'i Jahon Nav» (Bog' – Jan ko'zgusi) kabi bog' va saroylarni qurdirgan. Bu bog'lar ichida «Bog'i chinor» faqat chinor daraxtlaridan tashkil etilgan.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi hududida qishloq xo'jalik yer turlarining 90 % ortiqrog'i har - xil darajada eroziya va deflyatsiyaga xavfli deb topilgan, faqat deflyatsiyaga xavfli bo'lgan yer maydoni 21,3 mln. ga (77 %). Ushbu yerlar tuprog'ini eroziya va deflyatsiyadan saqlash, uning unumdorligini oshirish maqsadida amalga oshiriladigan boshqa tadbirlar bilan bir qatorda tegishli o'rmon daraxtlari o'tqazuvidan ham keng foydalaniladi, chunki ular dalalarning mikroiklimini yaxshilaydi, kuchli shamol tezligini sekinlashtiradi, ekinlarni «garimsel» shamolning salbiy ta'siridan saqlaydi, sel oqimiga qarshi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, sug'oriladigan yerlarda tuproqning qayta sho'rlanishiga yo'l qo'ymay, ekinlar hosildorligini ko'tarishga yordam qiladi. Ko'p yillik tajribaga muvofiq hozirgi kunda o'rmon daraxtlari o'tqazuvi tuproqni eroziya va deflyatsiyadan saqlashda, ekinlar hosilini oshirishda muhim omillardan biri, deb qabul qilingan. Qishloq xo'jalik korxonalari hududining tabiiy sharoitini hisobga olgan holda bugungi kundagi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali tegishli o'rmon daraxtlari o'tqazuvini joylashtirish hamda yer tuzish loyihalarining yangicha ko'rinishda bajarish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "[O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida](#)" PF-6024-son 10.07.2020
2. A.R. Bobojonov., Q.R. Rahmonov., A.J. G'ofirov. Yer kadastri// Darslik. TIMI nashriyoti, 2008. 212 b.
3. A.S. Chertovskiy, A.K. Bazarov. Sistema zemlepolzovaniya Uzbekistana. Fan. 2007, 212 s.
4. Volkov S.N. Zemleustroytvo// Uchebnik. T 2: Vnutrikozyatstvennoe zemleustroytvo. M.: Kolos, 2001, 648 str.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2020-yil 7-sentyabr PF-6061

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori 2020-yil 7-sentyabr PQ-4819.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"